



“BOBURNOMA” ASARIDA GIDRONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Kamolov Azizbek

Ajiniyoz nomidagi NDPI o‘zbek tili kafedrasи o‘qituvchisi

Sultonova Yangiljon Ne’matjon qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Nazarova Gulbahor Nasriddin qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning onomastika sohasida katta ahamiyatga ega bo‘lgan memuar asari “Boburnoma” asari haqida so‘z boradi. Asarda ayrim qo‘llanilgan gidronimlar va ularning etimologiyasi izohlanadi. Asarda keltirilgan gidronimlarning semantik guruhlari tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: gidronim, chashma, obrud, obgir, obduzd, suy.

O‘zbek adabiyotining taniqli vakili Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining eng yirik asari “Boburnoma” asari orqali umumbashariy tafakkur tadrijiga munosib hissa qo‘shdi. Ushbu asar nafaqar adabiyot uchun balki, tilshunoslik uchun ham beqiyos manba bo‘lib xizmat qildi. Omomastika sohasini o‘rganishda ushbu asar tarixiy manba sifatida asosiy vositalardan biridir. Unda ko`plab onomastik birliklar qayd etilgan. Xususan gidronimlarning qo‘llanilish doirasi ancha keng. Ularning umumiy qo‘llanilishi 140 dan ortiq. Keltirilgan gidronimlar bir necha guruhlarga ajratib tavsiflanadi. Avvalo daryo nomlariga to‘xtalib o‘tsak. Masalan, “Boburnoma”da birgina Amudaryoning turli nomlarda ifodalanganligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, Amu, Amu suyi, Amu daryo tarzida qo‘llanishlar uchraydi. Amu suyini “Uyoch” guzaridan o‘tganda kelib mulozamat qildi.

Tarixdan bizga ma‘lumki, ushbu daryoning 10 dan ortiq nomlari ma’lum. Daryo *yunon* va *rimliklar* tomonidan “Oksus” deya nomlangan.

Amudaryoning hozirgi nomi qadimgi Omul shahri nomidan olinganligi haqida ma’lumotlar bor. Mahmud Qoshg‘ariy o‘z asarlarida “amul” so‘zini *sokin*, *tinch* ma’nolarida qo‘llagan. Bundan kelib chiqadiki, daryoning tashqi xususiyati uning nomlanishi uchun xizmat qila olgan.

Rang bildiruvchi gidronimlar o‘ziga xos lug‘aviy birliklardan hosil bo‘lganki, ular suvgaga mos turli belgi hamda xususiyatlarni ifodalab keladi. Asosan rang bilan bog‘liq bo‘lgan gidronimlar oq, qora, qizil, yashil, sariq kabi birliklar bilan birgalikda yasaladi. Asarda qizil va qora ranglari bilan bog‘liq nomlanishlar mavjud. Odatda joy nomlari shuningdek suv inshotlarini nomlashda ushbu ranglarning keng tarzda



qo‘llanishini kuzatishimiz mumkin. “ Yaqubga ijozat bergandan so‘ng Qizilsuv quyi ko‘chib, Andarob suyining qotilishiga yovuq tushuldi” [4.104]. Ushbu nomlanish suvning tiniq emas loyqa ekanligini izohlab kelmoqda. Gidronim nomi – Qizilsuv bitishuv munosabatidagi so‘z birikmasi. Kompozitsiya usulida yasalgan. Sifat+ot ko‘rinishida qo‘shma so‘z. Markaziy Osiyodagi yirik daryolardan yana biri Sirdaryo bo‘lib, Tyanshan tog‘laridan boshlangan, Norin va Qoradaryoning qo‘shilishidan hosil bo`lgan. Orol dengizi tomon oqqan Sirdaryo ham qadimdan juda ko‘p nomlar bilan atalgan. “Avesto”da *Danu* deb nomlangani ma’lum. Boburnomada daryoning nomi “Sayxun” deb ko‘rsatilgan. “Sayxun daryosikim, Xo‘jand suyg‘a mashhurdir”.[4.34]. Shu bilan birga daryoning irmoqlari ham mavjud bo‘lib ularning asosiylari 3 tadir.

Asarda “anhор” so‘zi qadimiy qo‘llanish nuqtayi nazaridan yondashilgan holda foydalanilgan. Anhor so‘zining muqobili sifatida “rud” gidronimik nomlanish ishlatilgan. “ Sulton Ma’sud mirzo Xisorda turmoqning maslahatini topmay Kamrud rudi yuqori Siri tog‘ yo‘li inisi Boysunqor mirzo qoshig‘a Samarqandga bordi” . [4.52]

Asarda Zarafshon daryosining boshlanish yuqori oqimi “Kamrud” deb atalgan. “Odinapur qo‘rg‘oning janub tarafi Surxrudtur. Qo‘rg‘on balandida voqi bo‘lubtur. Rud tarafi qirq-ellik qari yakondoz tog‘dur” . [4.110] *Surxrud* “tojikcha” qizil va daryo so‘zlaridan kelib chiqqan. Sifat+ ot birikuvidan hosil bo‘lgan. Bunday belgilar suvning xususiyati asosida nomlangan gidronimlarni izohlaydi.

Memuarda suv inshotlarining toponimlarga nisbatlash asosida yuzaga kelgan atoqli otlari topogidronimlarni ham uchratamiz. “Chorshanba kuni Kindgar chashmasiga borib sayr qilduk. Kindgar Mandivor tumsanna taalluq kentur. Tamom Lamg‘onotda ushbu kentta o‘q xurmo bordur...” [4.182] Ariq nomlari ham bir necha o‘rinlarda uchraydi. “Obirahmat” arig‘i o‘zining sinonim variantlari bilan qo‘llanilgan. “Olamda yaxshi kog‘az Samarqanddin chiqar. Juvozi kog‘azlar suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu Qora suvni Obi Rahmat ham derlar, bir bog‘ solibtur”. [4.59]

“Piro‘zpur (Firo‘zpur)” *chashmasi* va Kotladagi katta ko‘lning ta’rifini eshitgandim. Ham Humoyunni kuzatish, ham bu yerlarni sayr qilish niyatida yakshanba kuni lashkarni o‘sha yerda qoldirib, otlandim. O‘sha kuni “Piro‘zpur” chashmasini tomosha qilib, ma’jun yedik. Chashma suvi oqib o‘tadigan daraning hamma yerida kaneyr gullari ochilib yotibdi.[4.242]

Hinduston tog‘laridandan chiqqan olti daryo: Sind, Bahat, Chanob, Raviy, Biyah va Satlaj Sahrinddan shimol tarafga qarab oqib boradi. Multon atrofiga borganda bu



suvlari qo'shilish, bir yerga quyiladi va uni endi Sind deb ataydilar. Sind g'arb tomonga oqib Tatta viloyatidan o'tgach, borib Ummon daryosiga quyiladi. Bu olti daryodan boshqa yana: Juun, Rapat, Go'mtiy, Gagar, Saro', Gandak va yana ko'p daryolar bo'lib, ularning hammasi Gang daryosiga quyiladi va ular ham Gang deb ataladi. [4.208]

Yana Hindustonning hech qachon qor bo'lmaydigan tog'laridan chiqadigan Chanbal, Banas, Betviy va So'n kabi daryolari borki, ular ham Gang daryosiga qo'shiladi. [4.209]

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, gidronimlar nomlanish jihatidan ancha qadimiylar tarixiylikka ega. Ularning nomlanishi tarixiylik prinsipi asosida shakllangan. Til takomillashuvi natijasida so'zlarning tarkibida o'zgarish ro'y berib ularning shakli o'zgargan. Memuarda tariflangan gidronimlar tuzilish jihatidan ham ancha xilma-xildir ya'ni sodda tarkibli va qo'shma tarkibli gidronimlar uchraydi. Gidronimlarning lisoniy shakllanishida gidronimik aniqlagichlar asos qilib olingan. Asarda gidronimlar faol tarzda qo'llanilib ma'no-mazmunini saqlab qolgan.

Asardagi gidronimik indikatorlar :

No		
1.	Daryo	Daryo
2.	Ko'l	Ko'l
3.	Guzar	Kechuv
4.	Suy	Suv, daryo
5.	Band	To'g'on
6.	Rud	Anhor, ariq, daryo
7.	Jazoyir	Orol
8.	Qo'l	Soy
9.	Obgir	Botqoqlik
10.	Tarnov, shayjo'y	Ariq
11.	Chashma	Buloq
12.	Ob	Suv
13.	Obrud	Katta ariq
14.	Obgir	Suv olinadigan joy
15.	Obduzd	Tarnov
16.	Hovz	Hovuz
17.	Koriz	Yer osti arig'i
18.	Shaxjo'y	Katta ariq



Foydalanimanadabiyotlar:

1. Xolmonova.Z “Boburnoma - til qomusi” Toshkent-2021
2. Zahiriddin Muhammad Bobur “ Boburnoma” Toshkent – 2002
3. Qorayev.S “Toponimika” Toshkent-2006
4. Uloqov.N “ O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi” Toshkent-2008.
5. Murotovna, J. M., & Uluqov, N. (2023). “BOBURNOMA” DA KELTIRILGAN AYRIM GIDRONIMLARNING TARIXIY-LISONIY TAHLILI. *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(22), 35-41.

Internet materiallari:

6. www.ziyouz.com
7. www.pedagoglar.uz

